

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 1254 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 435 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1959 ta (13,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16312 tani tashkil etgan.



*Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1222	1187	91
 Sanoat	2188	2168	257
 Qurilish	1877	1874	137
 Savdo	4121	4087	548
 Tashish va saqlash	696	685	31
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1157	1144	93
 Axborot va aloqa	203	200	10
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	293	290	13
 Boshqa turlari	4889	4677	74



**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2019 - yilning 1-mart holatiga 16646 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 24,8 % savdo, 13,1 % sanoat, 11,3 % qurilish, 7,3 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 6,9% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa, hamda 29,4 % tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3551 ta), Denov tumani (1923 ta), Jarqo'rg'on tumani (1230 ta) va Termiz tumani (1087 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Angor (816 ta), Muzrabot (755 ta) hamda Oltinsoy (646 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16312 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1959 ta (13,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16312 tani tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,0 % savdo, 13,3 % sanoat, 11,5 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 28,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga soni eng ko'pi Termiz shahri (3493 ta), Denov (1880 ta), Jarqo'rg'on (1218 ta), Termiz (1079 ta) va Sho'rchi (1065 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Oltinsoy (632 ta), Muzrabot (740 ta) hamda Angor (804 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.03.2017 y.

• **13396 ta**

01.03.2018 y.

• **14353 ta**

01.03.2019 y.


• **16312 ta**



### Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).

2019-yil yanvar-fevral oylarida 1254 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 53,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahri (221ta), Denov (205 ta), Sho'rchi (103 ta) va Termiz (91ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Sariosiyo (39 ta), Oltinsoy (45 ta), hamda Muzrabot (49 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rilganda, eng ko'pi savdo (548 ta), sanoat (257 ta), qurilish (137 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (93 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (91 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (13 ta) hamda axborot va aloqa (10 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>505</b>	<b>100,0</b>	<b>819</b>	<b>100,0</b>	<b>1254</b>	<b>100,0</b>
Savdo	136	26,9	179	21,9	548	43,7
Sanoat	85	16,8	99	12,1	257	20,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	73	14,5	110	13,4	91	7,3
Qurilish	61	12,1	77	9,4	137	10,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	45	8,9	59	7,2	93	7,4
Tashish va saqlash	39	7,7	27	3,3	31	2,5
Axborot va aloqa	5	1,0	6	0,7	10	0,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	0,8	27	3,3	13	1,0
Boshqa turlari	57	11,3	235	28,7	74	5,9

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**








## TIJORAT KORXONALARNI

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-mart holatiga 12842 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar-5559 ta, oilaviy korxonalar-841 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar-6082 ta, va boshqalar -360 tani tashkil etadi.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 215 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 148 taga yoki 320,1 % ga o'sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 84 tasi qo'shma korxonalar, 131 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.


**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
davlatlar kesimida soni, birlikda**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar (94 ta yoki jamidagi ulushi 43,7 %), Termiz (21 ta yoki 9,8 %), hamda Denov va Uzun tumanlarida (13 tadan yoki 6,1% dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun (2 ta yoki 0,9%), Oltinsoy (3 ta yoki 1,4 %), Qumqo'rg'on (6 ta yoki 2,8 %) va Sherobod (7 ta yoki 3,3 %) tumanlari hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 mart holatiga ko'rsak, eng ko'p qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 62 tani (28,8 %), sanoatda 59 tani (27,4 %), savdoda 51 tani (23,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida 14 tani (6,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 3 tani (1,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 tani (3,3 %), tashish va saqlashda 8 tani (3,7 %) va qurilishda 10 tani (4,7 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy

kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat, savdo va boshqa faoliyat turlarida to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 37 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga ko'paygan.

Bunda, Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 24 ta, Rossiya Federatsiyasi- 3 ta, Tojikiston Respublikasi- 3 ta, Hindiston Respublikasi- 2 ta, Turkmaniston Respublikasi- 2 ta, Gretsiya, Qozog'iston va Gruziya Respublikalari - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil

yanvar-fevral oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**. Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta), savdo (11 ta), sanoat (9 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (2 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar-fevral		2019 yil yanvar-fevral	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
	<b>8</b>	<b>100,0</b>	<b>37</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	50,0	11	29,7
Sanoat	1	12,5	9	24,3
Qurilish	x	x	x	x
Savdo	3	37,5	11	29,7
Tashish va saqlash	x	x	x	x
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	2	5,4
Axborot va aloqa	x	x	x	x
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	1	2,7
Boshqa turlari	x	x	3	8,2




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).*

2019-yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 12754 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1 mart holatiga qaraganda 16,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2997 tasi

(23,5 %) Termiz shahri, 1491 tasi (11,7 %) Denov, 954 tasi (7,5 %) Jarqo'rg'on hamda 921 tasi (7,2 %) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12754 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4069 tasi (31,9 %) – savdo, 2144 tasi (16,8 %) - sanoat, 1863 tasi (14,6 %) - qurilish, 1152 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1136 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 675 tasi (5,3 %) - tashish va saqlash, 228 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy

xizmatlar ko'rsatish, 194 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1293 tasi (10,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2019-yil yanvar-fevral oylarida 1232 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 71,6 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (211 ta), Denov (202 ta), Sho'rchi (102 ta) va Termiz (90 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sariosiyo (39 ta), Oltinsoy (45 ta), hamda Muzrabot (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (548 ta), sanoatda (257 ta), qurilishda (137 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (93 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (13 ta), hamda tashish va saqlashda (31 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1 mart holatiga 851 tani tashkil etib, ulardan 841 tasi yoki 98,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 25,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,8 % yoki 276 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,7 % yoki 208 tasi sanoat, 23,6 % yoki 198 tasi savdo, 11,7 % yoki 98 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 11 tasi qurilish, 1,2 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2% yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 3,8% yoki 32 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kami esa axborot va aloqa va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:71-230-85-90 (91)**